


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60211000– San’tashunoslik: tasviriy va amaliy san’at
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*



Toshkent-2023

ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Buxoro davlat universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil « 7 » 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi xududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1	<i>60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at</i> ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	<i>60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	<i>60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at</i> ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:	9
2.3.3.	<i>60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. 60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at bakalavriat ta’lim yo‘nalishining tavsifi

60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil..

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi.

Malaka talabi **60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘kuv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

– ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

– oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat kiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at ta’lim yo‘nalishi – tasviriy, amaliy san’at va dizayn sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalish bo‘lib, Ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida ta’lim yo‘nalishiga oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, zamonaviy san’at sohasiga yo‘naltirilgan davlat va nodavlat tashkilotlari, muzey va galereyalar, xususiy ishlab chiqarish birlashmalarida kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari:

– Tarixiy va madaniy meroc obyektlari;

– O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi muassasalar;

– Ixtisoslashtirilgan san’at maktablari;

– muzey va galereyalar;

–zamonaviy badiiy jarayon bilan bog‘liq ko‘rgazma maydonlari, markazlari;

- radio, televideniye, san’at savdosi bilan shug’ullanadigan tizimlar;
- ilmiy tadqiqot tashkilotlari.

60211000– *San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tamomlagandan so‘ng, pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin bolalar musiqa va san’at maktablari hamda ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida san’at tarixi fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, davlat va nodavlat tashkilotlari, muzey, galereyalarda san’atshunos sifatida ilmiy xodim bo‘lib ishlashi, teleradio kompaniyalarida san’atshunos-jurnalist sifatida faoliyat yuritish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. 60211000– *San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari:

- tasviriy san’at tarixini o‘rganishda ilmiy-tadqiqot ishlarini yuritish;
- badiiy tanqidchilik faoliyatini olib borish;
- tasviriy va amaliy san’at sohasida tashkiliy-boshqaruv faoliyat olib borish;
- tasviriy va amaliy san’at asarlarini badiiy tahlil qilish, ko‘rgazma ekspozitsiyasi konsepsiyalarini ishlab chiqish;
- rassomlar tomonidan yaratilgan asarlarning estetik va psixologik xususiyatlarini o‘rganish;
- pedagogik faoliyat (umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi tizimida)

1.2.4 60211000– *San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60211000– *San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan san’at asarlarining yaratilish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
- san’at asarlarini yaratish jarayonida sifatni nazorat qilish;
- jamoa ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayoni sifatini boshqarish tizimini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- san’at asarlarini saqlash jarayonlarida atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish, marketing va boshqaruv;
- muzey va galereyalarda o‘zbek xalqining boy madaniy merosi, uning insoniyat tarixidagi o‘rni, taraqqiyot bosqichlarini, zamonaviy rivojlanish istiqbollari chuqur o‘rganib ekspozitsiya konsepsiyalarini yaratish,
- mamlakatimiz fuqarolarini chet ellarda saqlanayotgan tariximizga oid osori-atiqalar bilan keng tanishtirish hamda muzeylar fondidagi eksponatlarning yagona ro‘yxatini yuritish;
- bu sohaga tegishli meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish va bajarilishini ta’minlash ishlarida ishtirok etish;

- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Ilmiy - tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;
- badiiy, tasviriy va amaliy san‘at kabi tarixiy merosni o‘rganish;
- tasviriy va amaliy san‘at namunalarini o‘rganishda, ilmiy-amaliy anjumanlarda, ijodkorlar ko‘rgazmalarini tashkil qilishda, ularning kataloglarini yaratishda, san‘atshunos sifatida arxeologik tadqiqotlarda ishtirok etish;
 - respublika va xorijda chop etilgan san‘at tarixi va metodologiyasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning manbalarini o‘rganish;
 - ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
 - mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-ijodiy ma‘lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma‘lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
 - ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish;
 - internet tarmog‘ida sohaga tegishli eng yangi ilmiy, texnologik yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda qidirish va topish;
 - ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Badiiy tahlil va badiiy tanqidchilik faoliyatida:

- muallif sifatida tasviriy san‘at haqida maqolalar, nashrlar, informatsion, ijodiy ko‘rsatuvlar va eshittirishlar tayyorlash;
- telekamera va mikrofon oldida ishlay bilish;
- ko‘rsatuv yoki eshittirishni olib borganda ijodkorlar va tomoshabin – tinglovchilar bilan erkin muloqot qila olish;
- tasviriy va amaliy san‘at asarlarini g‘oyaviy – badiiy sifatlarini ajrata olishi;
- og‘zaki va yozma tahlil qilish bo‘yicha san‘atshunoslik malakaviy ko‘nikmalariga mukammal ega bo‘lishi;
- tasviriy va amaliy san‘atga oid muammoli maqolalar yozishi;
- ilmiy – ommabop va uslubiy ishlarni yaratishi;
- har xil janrlarga mansub asarlarga taqrizlar yoza olish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Foydalanish va servis xizmatini ko‘rsatish faoliyatida:

- tasviriy va amaliy-bezak san‘at asarlarini ekspertiza qilish, narxi va sug‘urta bahosini aniqlash, auksionlar tashkil qilish;
- badiiy muzeylar kolleksiya ashyolarini saqlash va targ‘ib qilishda metodik nashrlarni tayyorlash, sohaga oid treninglar tashkil etish, badiiy ashyolarni ekspertiza qilish;
- tasviriy va amaliy-bezak san‘ati sohasida aholiga va sayyohlarga malakali ekskursiyalar tashkil qilish, aholi va mehmonlarga yuqori saviyada xizmat ko‘rsatish;
- san‘atshunoslik va muzeyshunoslik sohasida xalqaro aloqalar hamda o‘zaro foydali hamkorlik rejalari tuzish;
- san‘at asarlari atribusiyasi va ekspertizasini bilish;
- muzey fondlarini boyitish maqsadida sotib olinayotgan ashyolar bo‘yicha xulosa berish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-xunar ta‘limi muassasalarida pedagogik faoliyatida:

- professional ta‘lim muassasalari tizimining mos ta‘lim muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

– professional ta’lim muassasalari tizimining mos ta’lim muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘quv ustaxonalarida o‘tkazish;

– zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, nostandart o‘quv mashg‘ulotlarini ishlab chiqish va o‘tkazish;

– o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish;

– o‘qitilayotgan fan bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish;

– mustaqil ta’lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar tizimida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

2. 60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

– davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ilmiy-ijodiy muammolarni va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

– ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi, soha bo‘yicha faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

– mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, to‘g‘ri xulosa chiqarish, kasbiy madaniyatni shakllantirish

– insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

– kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalarini qo‘llay bilishi, axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

– tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga hamda o‘quv va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

– ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma’lumotli shaxslar egallashi lozim bo‘lgan lavozimlarda mustaqil ishlash;

– tegishli bakalavriat yo‘nalishlari doirasida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha magistraturada oliy ta’limni davom ettirish;

– kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta’limi olish;

– muzey va galereyalarda o‘zbek xalqining boy madaniy merosi, uning insoniyat tarixidagi o‘rni, taraqqiyot bosqichlari, zamonaviy rivojlanish istiqbollari chuqur o‘rganib ekspozitsiya konsepsiyalarini yaratish;

– zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– kasbga oid muammolar yechimlarni amaliyotga tatbiq etish;

– san’atshunoslik sohasida xalqaro aloqalar hamda o‘zaro foydali hamkorlik rejalari tuzish;

– san’atshunoslik faoliyatiga oid qonun va qonun osti hujjatlari bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketmaketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot – pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

2.3.1..Kvalifikatsiya: San’atshunos.

2.3.2. 60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5520	184
Tanlov fanlar	600	20
Malakaviy amaliyot	630	21
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

2.3.3. 60211000– San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr i
1.00		Majburiy fanlar	5520	184	1-7
1.01	O‘YEYAT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	Fals1104	Falsafa	120	4	1
1.03	XT1408	Xorijiy til	120	4	1
1.04	SSAT1104	San’at sohasida axborot texnologiyalar	120	4	2
1.05	O‘T1104	O‘zbek (rus) tili	120	4	2
1.06	JTVS1102	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	1
1.07	San’As1104	San’atshunoslik asoslari	120	4	1
1.08	TasSAR1204	Tasviriy san’atda afsona va rivoyatlar	120	4	2
1.09	Me’mAs1104	Me’morchilik asoslari	120	4	1
1.10	QDST1212	Qadimgi dunyo san’ati tarixi	360	12	1,2
1.11	TKMS1104	Teatr, kino va musiqa san’ati	120	4	1
1.12	SHKMS1106	Sharq kitoboti va miniatyurasi san’ati	180	6	3
1.13	O‘ASHG‘YST1216	O‘rta asrlar Sharqiy va G‘arbiy Yevropa san’ati tarixi	480	16	3,4
1.14	O‘zXAST12012	O‘zbek xalq amaliy san’ati tarixi	240	8	3,4
1.15	SharqST1208	Sharq san’ati tarixi	360	12	3,4
1.16	O‘zST15032	O‘zbekiston san’ati tarixi	960	32	3,4,5,6,7
1.17	XVII-XVIII-AYEST12016	XVII-XVIII asrlar Yevropa san’ati tarixi	480	16	5,6
1.18	ABST 1208	Amaliy bezak san’ati tarixi	240	8	5,6
1.19	BTTN1208	Badiiy tanqid tarixi va nazariyasi	240	8	5,6
1.20	MDH ST1206	MDH san’ati tarixi	240	8	6,7
1.21	IIAs1106	Ilmiy ish asoslari	180	6	7
1.22	XIX-XXI-AYEST12016	XIX-XXI asrlar Yevropa san’ati tarixi	240	8	7
1.23	ZSNF1106	Zamonaviy san’ati nazariyasi va falsafasi	120	4	5
2.00		Tanlov fanlar	600	20	2,4,5,7
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	600	20	2,4,5,7
		Jami	6120	205	
		Malakaviy amaliyot	630	21	4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	8
		Jami	1080	36	
		HAMMASI	7200	241	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002- 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, san'at sotsiologiyasi, oqim, yo'nalish, uslub, uslubiyat, tahlil, taqriz, badiiy tanqid, san'at tarixi, san'at nazariyasi, me'morchilik, haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika, amaliy san'at, jarayon, muzey, madaniy meros, eksponat, ekspozitsiya, ko'rgazma, konservatsiya, ta'mirlash, ekspertiza, atribusiya, menejment, marketing, imidj, kommunikatsiya, ilmiy konsepsiya.

Kelishuv varag'i

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:
Toshket davlat pedagogika universiteti**

Rektor  A. Kirgizbayev

2023-yil



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

direktori  Sh. Yakubov

2023-yil « 06 »

M.O.



O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi

direktori  Sh. Sattorov

2023-yil « 06 »

M.O.



Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektor  Sh. Sharipov

2023-yil « 06 »

M.O.



Guliston davlat pedagogika instituti
rektori v.b.  A. Qalandarov

2023-yil « 06 »

M.O.

